



## ISSUES OF DEVELOPMENT OF PAYMENT SERVICES OF COMMERCIAL BANKS

**Babayeva Guzal Yashinovna**

Associate Professor of the Department of "Bank Accounting and Audit"  
of Tashkent State University of Economics  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15318680>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025  
Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025  
Online: 30<sup>th</sup> April 2025

#### KEYWORDS

Commercial banks,  
payment systems,  
electronic payment  
systems, information and  
communication  
technologies, remote  
services.

### ABSTRACT

*This article studies the scientific research of local and foreign scholars on the development of payment services by commercial banks and analyzes the impact of information and communication technologies on payment services of commercial banks. In addition, proposals for the future development directions of payment services in commercial banks have been developed.*

## ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ПЛАТЕЖНЫХ УСЛУГ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ

**Бабаева Гузаль Яшиновна**

Доцент кафедры «Банковский учет и аудит» Ташкентского государственного  
экономического университета  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15318680>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025  
Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025  
Online: 30<sup>th</sup> April 2025

#### KEYWORDS

Коммерческие банки,  
платёжные системы,  
электронные  
платёжные системы,  
информационно-  
коммуникационные  
технологии,  
дистанционные услуги.

### ABSTRACT

*В данной статье изучены научные исследования отечественных и зарубежных ученых в области развития платёжных услуг коммерческих банков, а также проанализировано влияние информационно-коммуникационных технологий на платёжные услуги коммерческих банков. Кроме того, разработаны предложения по перспективным направлениям развития платёжных услуг коммерческих банков.*

## TIJORAT BANKLARINING TO'LOV XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

**Babayeva Guzal Yashinovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Bank hisobi va auditi" kafedrasida dotsenti



## ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> April 2025

Accepted: 29<sup>th</sup> April 2025

Online: 30<sup>th</sup> April 2025

## KEYWORDS

*Tijorat banklari, to'lov tizimlari, elektron to'lov tizimlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy xizmatlar.*

## ABSTRACT

*Mazkur maqolada tijorat banklarining to'lov xizmatlarini rivojlantirish borasidagi mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari o'rganilgan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tijorat banklarining to'lov xizmatlariga ta'siri tahlil qilingan. Shuningdek, istiqbolda tijorat banklarining to'lov xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

## Kirish.

Tijorat banklari amaliyotiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) keng joriy etilishi bank xizmatlarining raqamlashtirilishi va ularning masofadan ko'rsatilishini jadallashtirdi. Elektron bank xizmatlarining samaradorligi rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillar davomida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi bilan isbotlangan. Elektron bank xizmatlariga o'tish mamlakatimiz to'lov tizimlarini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda mijozlar bilan o'zaro munosabat shakllari takomillashib, vaqt omilini tejashga, xizmat ko'rsatish tezligi va qulayligini oshirishga, mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarning raqamli kanallar orqali amalga oshirilishiga, ularning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan yondashuvni joriy etishga qaratilmoqda. Raqobat ustunligini saqlab qolish uchun tijorat banklari axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini faoliyatiga keng joriy etish uchun mijozlar ehtiyojlariga moslashuvchan tizimlarni ishlab chiqmoqda. Hozirgi vaqtda mijozlarning barcha so'rovlarini to'liq boshqarish maqsadida omnikanal (mobil ilova, veb-sayt, call-markaz, bank ofisi va boshqalar) strategiyasini shakllantirish va platformali yechimlarni joriy etishga ustunlik berilmoqda.

Strategik o'zgarishlar bank tizimining barcha darajalarida yuz bermoqda. Shu bois, tijorat banklarining faoliyatida geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlari natijasida yuzaga keladigan risklarni samarali boshqarish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib bermoqda. Ushbu holat tijorat banklari oldida to'lov tizimlarini yanada takomillashtirish, mijozlar ma'lumotlarining xavfsizligini saqlash, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali operatsion samaradorlikni oshirish kabi muhim vazifalar turibdi. Banklar uchun xavf-xatarlarni minimallashtirish, raqamli transformatsiyani amalga oshirish va yangi raqamli xizmatlarni ishlab chiqish zaruriyati kundan-kunga ortib bermoqda.

COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlari iqtisodiyotning turli sohaslarida, shu jumladan, bank sektori sohasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ushbu global va mintaqaviy inqirozlar tijorat banklari faoliyatida yangi risklarni yuzaga keltirdi, omillar faoliyatini barqarorlashtirish va mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishdagi mavjud muammolarni yanada keskinlashtirdi. Bu holat banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda yangi yondashuvlar va innovatsion yechimlarga ehtiyojni oshirdi.



Shu bilan birga, bu sharoitda banklar va moliya muassasalari mijozlar bilan o'zaro munosabatlar va xizmatlarni raqamlashtirishga katta urg'u bera boshladilar. Pandemiya va geosiyosiy o'zgarishlar elektron bank xizmatlari, onlayn to'lov tizimlari va mobil ilovalar kabi raqamli xizmatlarga bo'lgan talabni oshirdi. Elektron to'lovlar va raqamli bank xizmatlari banklarga tezkor xizmat ko'rsatish va mijozlarning ehtiyojlarini qondirishda muhim vositaga aylandi.

## **Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.**

Tijorat banklari faoliyati nuqtayi nazaridan, to'lov tizimi — bu to'lovchini oluvchiga to'lovni amalga oshirish jarayonida o'zaro hamkorlikni ta'minlaydigan, shuningdek, to'lov aylanmasining xizmat ko'rsatiladigan qismini samarali va uzluksiz boshqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan moliyaviy infratuzilma hisoblanadi.

М. Горчакова tadqiqotlarida masofaviy bank xizmatlari tijorat banklarining to'lov tizimi doirasida mijozga bankka tashrif buyurmasdan, telefon va Internet tarmoqlari orqali ko'rsatmalar uzatish asosida to'lov va hisob-kitob amaliyotlarini amalga oshirish imkoniyatini taqdim etuvchi tizim deb ta'kidlaydi [1].

Ю. Всяких fikriga ko'ra, bank plastik kartasi mijozlarga xizmat ko'rsatishning muhim vositalaridan biri bo'lib, to'lovlarni tezkor, qulay va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi [2]. Hozirgi kunda tijorat banklari to'lov tizimlari orqali plastik kartalar yordamida mijozlarga naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish, bankomatlardan naqd pul yechish, POS-terminallar orqali tovar va xizmatlar uchun to'lovlar qilish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

М.Всяких va Н. Нестеровalar o'z tadqiqotlarida tijorat banklari tomonidan elektron kartalarning keng joriy etilayotganligini ta'kidlagan holda, bu turdagi kartalar faqat elektron to'lovlar uchun mo'ljallanganligini va ko'plab xalqaro to'lov tizimlarida allaqachon keng qo'llanilayotganini qayd etadi [3]. Masalan, VISA to'lov tizimida VISA Electron, MasterCard tizimida esa Maestro kartalari mavjud.

О. Лаврушин esa o'z tadqiqotlarida elektron hamyonlar bo'yicha barcha operatsiyalar tijorat banklari yoki boshqa vakolatli tashkilotlar tomonidan amalga oshirilishini ta'kidlaydi [4]. Elektron pul mablag'lari summasi savdogar va xaridor o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa kanallari orqali o'tkazilishi yoki konvertatsiya qilinishi mumkin.

П.Чорба va Ю.Всякихlar Digicash kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli pullarning hayotiy tsikli bosqichlarini ko'rib chiqadi. Bunda mijoz shaxsiy kompyuterida elektron kupyuralar yaratadi, ularning nominal qiymati va seriya raqamini belgilaydi hamda raqamli imzosi bilan tasdiqlaydi. So'ngra, mijoz ushbu kupyuralarni tijorat bankiga yuboradi. Bank, mablag'ni hisob raqamiga o'tkazish vaqtida, faqat kupyuraning nominal qiymatini bilgan holda ularni tasdiqlaydi va qayta mijozga yuboradi. Ushbu jarayondan so'ng, mijoz xarid amalga oshirayotganda kupyuralarni sotuvchiga yuborishi mumkin. Sotuvchi esa ularni bankka taqdim etadi, bank esa kupyuralarning haqiqiylikini tekshiradi va sotuvchining hisob raqamiga mablag'ni o'tkazadi [5].

O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimi to'g'risida"gi qonuniga asosan quyidagilar bo'yicha xizmatlar ko'rsatish to'lov xizmatlari jumlasiga kiradi:

- bank hisobvarag'idan foydalangan holda to'lovlarni qabul qilish va amalga oshirish;
- naqd pul mablag'larini bank hisobvaraqlariga, shu jumladan uchinchi shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish uchun qabul qilish;

- to'lovchi tomonidan bank hisobvarag'ini ochmagan holda to'lovni amalga oshirish uchun naqd pul mablag'larini qabul qilish;
- elektron pullarni chiqarish va qoplash;
- bank kartalarini chiqarish;
- elektron pullarni va bank kartalarini realizatsiya qilish;
- elektron pullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan to'lovlarni qabul qilish va bu to'lovlarga ishlov berish;
- elektron shakldagi to'lovlarga ishlov berish va to'lovni amalga oshirish uchun zarur axborotni bankka berish yoki mazkur to'lovlar bo'yicha pul mablag'larini qabul qilish;
- pul o'tkazmalari tizimi orqali pul mablag'larini qabul qilish va amalga oshirish[6].

### Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada analiz, sintez, tanlanma kuzatuv, qiyoslash, statistik tahlil, induksiya, deduksiya kabi tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

### Tahlil va natijalar muhokamasi.

To'lov xizmatlarini rivojlantirishda plastik kartochkalar muhim o'rin tutadi va ulardan bank sohasida foydalanish moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish usullarini sezilarli darajada o'zgartirdi. Keling, O'zbekistonda ulardan foydalanish dinamikasi qanday ekanligini aniqlaymiz. Quyidagi 1-rasmda O'zbekistonda plastik kartochkalardan foydalanishning o'zgarish dinamikasi keltirilgan.




### 1-rasm. O'zbekistonda plastik kartochkalar bozorining o'sish dinamikasi [7]

Tijorat banklari COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlari davrida ichki jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish va samaradorlikni oshirishga harakat qilishdi. Xususan, sun'iy intellekt, blokcheyn texnologiyalari va katta ma'lumot (big data) kabi ilg'or texnologiyalar banklarda yangi xizmatlarni yaratish va operatsion jarayonlarni yanada yaxshilash imkoniyatlarini taqdim etdi.

Mamlakatimizda ham tijorat banklari tomonidan elektron to'lov tizimlarini keng joriy etish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon nafaqat bank tizimining samaradorligini oshirishga, balki mijozlarga sifatli va qulay xizmatlar ko'rsatishga ham qaratilgan. Elektron to'lov tizimlari nafaqat tijorat banklarining raqobatbardoshligini

oshirishga yordam bermoqda, balki iqtisodiyotning umumiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Tijorat banklari elektron to'lov tizimlarining rivojlanishiga katta e'tibor qaratmoqda. Ular mobil ilovalar, internet-banking va boshqa raqamli xizmatlarni joriy etish orqali mijozlarga bank xizmatlarini tezkor va xavfsiz tarzda taqdim etish imkonini yaratmoqda. Shu bilan birga, bu tizimlar xalqaro to'lov platformalariga ulanishni, milliy va xalqaro savdolarni osonlashtirishni, shuningdek, to'lovlarni amalga oshirishda operatsion xarajatlarni kamaytirishni ta'minlamoqda. Quyidagi 2-rasmda mamlakatimizda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni keltirilgan.



## 2-rasm. Mamlakatimizda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (ming kishi) [7]

Mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilarning soni ortib bormoqda. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlaridan jami foydalanuvchilar soni 43556,0 ming donani, shundan yuridik shaxslar 5,6 foizni, jismoniy shaxslar esa 94,4 foizni tashkil etmoqda. 2025-yilga kelib, ushbu nisbat 2,8 punktga o'zgargan holda jismoniy shaxslarning ulushi 97,2 foizga yetgan. Umuman olganda tahlil qilinayotgan davrda masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, 2021-yilga nisbatan 3,6 barobarga yoki 38346 ming kishiga ko'paygan. Bu holat jismoniy shaxslarning masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan keng foydalanayotganini ko'rsatadi. Bu o'sish tijorat banklarining masofaviy xizmatlarni kengaytirishga va raqamli bank xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari natijasida yuzaga kelgan.

Bu tizimlar mijozlarga bank hisob raqamlarini masofadan turib boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish, valyuta almashtirish, kredit olish, depozit qo'yish va boshqa ko'plab xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Yangi texnologiyalar va mobil ilovalar yordamida mijozlar bankka tashrif buyurmasdan, o'z ehtiyojlarini qondirib, barcha bank xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [8].



Elektron to'lov tizimlarining kengayishi, ayniqsa, kichik va o'rta biznes vakillari uchun imkoniyatlarni kengaytirishga yordam bermoqda. Ushbu subyektlar elektron to'lovlarni amalga oshirish orqali nafaqat mijozlar bilan tezkor va qulay aloqalar o'rnatishadi, balki raqobatbardoshlikni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashmoqda.

Bundan tashqari, tijorat banklari ham xavfsizlikni ta'minlash uchun yangi texnologiyalarni joriy etmoqda. Kiberxavfsizlik, identifikatsiya va tranzaksiyalarni himoya qilish borasida yangi standartlar va innovatsion yechimlar ishlab chiqilmoqda. Shu bilan birga, davlat va bank muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, elektron to'lov tizimlarining muvofiqligini va global moliyaviy bozorlar bilan integratsiyasini ta'minlashga qaratilgan. Shu tarzda, elektron to'lov tizimlarining keng joriy etilishi mamlakatimiz bank tizimini yanada modernizatsiya qilish, mijozlarga sifatli xizmatlar taqdim etish, shuningdek, iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishga xizmat qiladi [9].

Biroq, bunday o'zgarishlar va texnologik rivojlanishlar, o'z navbatida, yangi xavf-xatarlarni ham keltirib chiqardi. Banklarning kiberxavfsizlikni ta'minlash va mijoz ma'lumotlarining himoyasini mustahkamlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etdi. Geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlarining mavjudligi banklar uchun yangi siyosiy va iqtisodiy risklarni keltirib chiqardi, bu esa o'z navbatida xalqaro moliya bozorlaridagi noaniqlikni oshirdi.

### **Xulosa va takliflar.**

Raqamli bank xizmatlariga o'tish va barcha vazifalarni raqamli kanallar orqali taqdim etish yirik miqdordagi investitsiyalarni talab etib, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari uchun amalga oshirilishi qiyin bo'lgan vazifa hisoblanadi. Shunga qaramay, rivojlanish istiqboli sifatida banklar o'z mijozlari bilan o'zaro aloqada eng yaxshi xalqaro banklar tomonidan sinovdan o'tgan omnikanal strategiyasini amalga oshirishni o'zlariga maqsad qilib qo'yishlari kerak. Shuningdek, banklar mobil bank, internet-bank, terminallar, bankomatlar orqali bir-biriga integratsiyalangan kanallar orqali xizmatlarini ko'rsatishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Bu kanallar ma'lumotlarni taqdim etish va interfeys jihatidan bir-biriga mos kelib, asosiy farqlarni bartaraf etadi. Omnikanal tizimiga o'tish jarayonida, oflayn va onlayn operatsiyalar o'rtasidagi chegaralar yo'q qilinadi, bu esa bank xodimlari tomonidan bajariladigan oflayn operatsiyalar bilan masofaviy kanallarda avtomatik ravishda bajariladigan onlayn protseduralar o'rtasidagi farqni bartaraf etadi.

Tijorat banklarining to'lov xizmatlarini rivojlantirish yo'nalishlari quyidagi asosiy aspektlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq:

1. Elektron to'lov tizimlarining rivoji: Banklar raqamli platformalar va mobil ilovalar yordamida to'lov tizimlarini takomillashtirishga e'tibor qaratmoqdalar. Bu tizimlar mijozlarga qulay va tezkor to'lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

2. Omnikanal xizmatlari: Tijorat banklari o'z mijozlariga bank xizmatlarini bir nechta kanallar orqali (mobil bank, internet-bank, bankomatlar, POS-terminallar va boshqalar) taqdim etishni maqsad qilgan omnikanal strategiyasini joriy qilmoqda. Bu orqali mijozlar o'z ehtiyojlariga mos ravishda bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

3. Blokcheyn texnologiyalarini joriy etish: Blokcheyn texnologiyasi to'lov tizimlarini xavfsizroq qilish va tranzaksiyalarni tezlashtirishda yordam beradi. Banklar ushbu



texnologiyani o'z xizmatlarida qo'llash orqali to'lovlarni samarali va xavfsiz tarzda amalga oshirishni maqsad qilmoqda.

4. Xalqaro to'lovlar: Xalqaro to'lov tizimlarini rivojlantirish va valyuta kurslari va tranzaksiya to'lovlarini kamaytirish uchun yangi texnologiyalar va hamkorliklar joriy etilmoqda. Bu banklarga xalqaro miqyosda raqobatbardosh xizmatlar taqdim etish imkonini beradi.

5. Mobil to'lovlar: Mobil telefonlar orqali amalga oshiriladigan to'lovlar tobora ommalashib bormoqda. Banklar mobil to'lov tizimlarini rivojlantirish orqali mijozlar uchun eng qulay va samarali xizmatlarni taklif etishga intilmoqda.

6. Xavfsizlikni ta'minlash: To'lov xizmatlarining rivoji bilan birga, mijozlarning shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarining xavfsizligini ta'minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar zamonaviy xavfsizlik texnologiyalarini joriy etishga, xususan biometrik autentifikatsiya va ikki faktorli autentifikatsiyani qo'llashga e'tibor qaratmoqda.

7. AI va ma'lumotlarni tahlil qilish: Sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini to'lov tizimlariga joriy etish mijozlarning talablarini aniqlash va ularning xizmatlardan foydalanishini optimallashtirishda yordam beradi. Bu orqali banklar o'z xizmatlarini yanada shaxsiylashtirishi mumkin.

8. Xalqaro hamkorlik va integratsiya: To'lov tizimlarini rivojlantirishda xalqaro hamkorlik va integratsiyani kengaytirish banklarga yangi bozorlarni o'rganish va xizmatlarni global miqyosda taklif etishga yordam beradi.

Bu yo'nalishlar tijorat banklarining to'lov xizmatlarini takomillashtirish va mijozlarga yanada samarali xizmat ko'rsatish uchun asosiy vositalar hisoblanadi.

Shunday qilib, COVID-19 pandemiyasi, geosiyosiy keskinliklar va savdo urushlari bank tizimlarida yangi sinovlarga olib keldi, lekin shu bilan birga, banklar uchun yangi imkoniyatlar va innovatsion yondashuvlarga ham yo'l ochdi. Raqamli transformatsiya va texnologiyalarni joriy etish banklarga o'z xizmatlarini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob berish imkonini berdi.

## References:

1. Горчакова М. Е. Дистанционное банковское обслуживание: учеб. пособие. – Иркутск: Изд-во БГУЭП, 2009. – 65 с.
2. Всяких Ю. В. Социально-экономические аспекты формирования национальной платежной системы на основе практики использования пластиковых карт // Актуальные проблемы экономики в условиях реформирования современного общества: материалы заоч. междунар. науч.-практ. конф. (г. Белгород, 15 ноября 2013 г.) / под науч. ред. доц. Е. В. Никулиной. – Белгород: ИД «Белгород» НИУ «БелГУ», 2014. – С. 191–194.
3. Всяких М. В., Нестерова Н. С. Современные платежные системы коммерческого банка // Концепт. – 2015. – № 08 (август). – ART 15265. – 0,4 п. л. – URL: <http://e-koncept.ru/2015/15265.htm>. – ISSN 2304-120X.
4. Лаврушин О. И. Банковское дело: учеб. / О. И. Лаврушин, И. Д. Мамонова, Н. И. Валенцева и др.; под ред. засл. деят. науки РФ, д-ра экон. наук, проф. О. И. Лаврушина. – 8-е изд., стер. – М.: КНОРУС, 2009. – 768 с.



5. Чорба П. М., Всяких Ю. В. Пластиковые каты: учеб. пособие. – Белгород: Константа, 2009. – 214 с.
6. O'zbekiston Respublikasining «To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida» Qonuni, 01.11.2019 yildagi O'RQ-578-son.
7. <https://cbu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy veb sahifasi
8. Бабаева Г. Я., Отенова М. Т. Эффективность онлайн-банкинга для физических лиц //Бухгалтерский учет, анализ и аудит: современное состояние и перспективы развития. – 2020. – С. 12-16. (Источник: Бухгалтерский учет, анализ и аудит: современное состояние и перспективы развития. Материалы XI Международной научно-практической конференции. Екатеринбург, 2020 Издательство: Уральский государственный экономический университет (Екатеринбург))
9. Меры по снижению рисков мошенничества в платежных системах. Автор: Гузаль Яшиновна Бабаева Журнал International Journal of Education, Social Science & Humanities  
Том 12№ 6. Страницы 1361-1370  
[/https://scholar.google.com/citations?user=4SpN3AgAAAAJ&hl=ru](https://scholar.google.com/citations?user=4SpN3AgAAAAJ&hl=ru)